

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh


25 avgust, 2025 yil



Bankni strategik rivojlantirish
departamenti

SQB, Ipoteka va NBU evrobondlarining daromadliligi (2025-yil 1 yanvar-25 avgust, Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra)

UzSQB, Ipoteka banki va O'zmilliybank evrobondlarining daromadliligi, foizlarda




- 2024-yilning yozida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.
- SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,957% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 6,835% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 6,835% – 9,126% gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,563% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,533% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,533-8,878% gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta Ipotekabank evrobondlarining daromadliligi 6,914% darajasida bo'ldi. Biroq, haftaning oxiriga kelib daromadlilik pasaydi va 6,913% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,962% – 8,533% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi




Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 4,26-4,49% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 4,34% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib esa u biroz ko'tarilib, 4,36% ga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Euribor dinamikasi




Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,026% (3 oylik) va 2,111% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,685% (6 oylik) va 2,789% (3 oylik) ni tashkil etdi.




O'zbekiston valyuta bozori

O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo **774,8** million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan **87,0** million dollarga kamroq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi **12 497** so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib pasayib **12 357** so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha **3,5-4,5%** ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (**9,77%**), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon revalvatsiya **4,24%** ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




25.08.2025 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs **ASIA ALLIANCE BANK**da qayd etilgan – **12 365** so'm. Boshqa banklarda esa kurs **12 370 – 12 970** so'm atrofida o'zgarib turdi.




Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs **BRB bank**da qayd etilgan – **12 900** so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs **12 880-12 245** so'm atrofida bo'lgan.


USD-RUB dinamikasi



RUB-YUAN dinamikasi



EUR-USD dinamikasi



➤ USD/RUB kursining barqarorligi

2025 yil 18-22 avgust kunlari AQSh dollarining Rossiya rubliga nisbatan kursi ancha kam o'zgarishlar bilan, 80,5 dan 80,9 rubulgacha tor doirada harakat qildi. Eng yuqori ko'rsatkich 22 avgustda — 80,9 rublni tashkil etgan bo'lsa, eng pasti hafta boshida — 80,5 rublni tashkil qildi. Kursning bu qalqishi neft narxlarining neytral dinamikasi va AQSh FRSSining foiz stavkalari bo'yicha qat'iy so'zlar fonida ro'y berdi. Geopolitik qarama-qarshiliklar hamda AQSh tomonidan yangi sanksiyalar kutilgani rublga bosim o'tkazib, uning mustahkamlanishini chekladi.

➤ Rubl yuan qarshisida: avgust oyida barqaror kurs


2025 yil 18-22 avgust kunlari Rossiya rublining Xitoy yuani qarshisidagi kurs dinamikasi hafta davomida rubl kursi bir yuan uchun 10,8 dan 11,1 rubulgacha tor doirada harakat qilganini ko'rsatdi. Davrning oxirgi kunlarida rublning biroz mustahkamlanishi kuzatildi, bu Rossiya va Xitoy o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarning barqarorligiga bog'liq. Valyuta kursining o'zgaruvchanligi xalqaro moliya bozorlarida noaniqlikning umumiy kamayishi fonida o'rtacha darajada qoldi.

➤ Yevro dollarga nisbatan biroz mustahkamlandi

2025 yil 18-22 avgust kunlari Yevro kursi AQSh dollariga nisbatan o'rtacha o'zgaruvchanlik ko'rsatib, 1,1662 dan 1,1742 gacha harakat qildi. Haftaning boshidan oxirigacha Yevro biroz mustahkamlandi — davr boshida 1,1716 dan 22 avgustga kelib maksimal daraja — 1,1742 gacha o'sti. Ushbu o'zgarishlar aralash iqtisodiy fon bilan bog'liq: AQShdagi inflyatsiya va foiz stavkalari bo'yicha statistika e'lon qilinishi hamda Yevropa Markaziy bankining qarorlariga oid kutishlar. Bundan tashqari, geosiyosiy voqealar va asosiy valyuta bozorlarining regulyatorlari sharhlari ham ta'sir ko'rsatdi.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlarini dinamikasi
(bir untsiya uchun,
AQSh dollarida)



➤ Oltin narxlarini yangi rekord darajaga yetdi

2025-yil 18-22 avgust kunlari oltin narxlarini ozgina tebrandi, ammo umumiy holda o'sish tendensiyasini ko'rsatdi. Haftaning boshida narx taxminan 3330 dollar bo'lsa, keyingi kuni dollar kuchayishi sababli 3315 dollarga tushdi. Biroq haftaning o'rtalarida inflyatsiya kutilmalari ortishi bilan narx 3346 dollarga ko'tarildi. 21 avgustda narx biroz pasaydi, ammo 22 avgustga kelib maksimal daraja — 3371 dollarni tashkil etdi. Bu geosiyosiy taranglik va pul-kredit siyosatini yumshatish kutilmalari bilan bog'liq. Natijada, hafta davomida oltin narxi taxminan 1,2% ga oshdi. Bunday narx o'zgarishlari oltinning iqtisodiy noaniqlik davrida ishonchli aktiv ekanligini va investorlarning sarmoyalarini himoya qilishda yordam berishini ko'rsatadi.


Brent nefti narxlarini dinamikasi
(bir barrel uchun,
AQSh dollarida)



➤ Jahon birjalarida neft narxlarini oshdi

Dushanba kuni neft narxlarini keskin ko'tarildi, chunki Ukraina Rossiyaga qarshi hujumlarni kuchaytirib, Rossiyadan neft yetkazib berishda uzilishlar bo'lishi xavfini oshirdi. Bu vaziyat Yevropada, xususan Polshada ham xavotir uyg'otmoqda, chunki mintaqada energiya ta'minoti va xavfsizlik masalalari yanada murakkablashmoqda. AQShda foiz stavkalarining pasayishi kutilayotgani esa global iqtisodiy o'sish va yoqilg'i talabining oshishiga doir ijobiy prognozlarni kuchaytirdi. Bu omillar birgalikda neft bozoridagi narxlarining keskin o'sishiga sabab bo'ldi.

TTF gaz narxlarini dinamikasi
(megavatt-soat uchun,
AQSh dollarida)



➤ Yevropada gaz narxlarini oshmoqda

2025-yil 18-22 avgust kunlari Yevropada tabiiy gaz narxlarini barqaror o'sishni ko'rsatib, megavatt-soatiga 38,8 dollarga yetdi. Bu ititish mavsumi boshlanishi arafasida talabning oshishi natijasidir. Hafta davomida narx 35,8 dollardan 38,8 dollarga ko'tarilib, deyarli 8,4% o'sishni tashkil qildi. Ayniqsa, haftaning o'rtalarida — 20 avgustda narxlar keskin oshdi va kotirovkalar 36,7 dollarga yetdi. Bunga AQShda terminalarda texnik ishlar sababli Yevropaga SNG yetkazib berish jadvalida uzilishlar bo'lishi mumkinligi haqida xabarlar sabab bo'ldi. AQSh prezidenti Donald Tramp Moskva tinchlikka rozi bo'lmasa, Rossiyaga yangi sanksiyalar joriy etilishi bilan tahdid qildi. Bu global energetika yetkazib berishining barqarorligiga oid xavotirlarni kuchaytirdi va Yevropa treyderlari tomonidan himoya xaridlarining oshishiga olib keldi.

Yangiliklar

Türkiye İş Bankası kichik biznes uchun raqamli platformani ishga tushirdi

Türkiye İş Bankası tadbirkorlarga buxgalteriyani avtomatlashtirish va moliyalashtirish imkonini beruvchi yangi platformani taqdim etdi. Ushbu platforma mobil ilova orqali foydalanish mumkin.

CaixaBank shaxsiylashtirilgan moliyaviy tavsiyalar xizmatini ishga tushirmoqda

CaixaBank mijozlarning xulq-atvorini tahlil qilish uchun sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalanadi va individual moliyaviy mahsulotlar hamda maslahatlar taklif qiladi.

HypoVereinsbank sun'iy intellekt yordamchilar orqali mobil bankingni kuchaytirmoqda

Bank sun'iy intellekt asosidagi virtual yordamchilarni joriy etdi, ular mijozlarga mobil ilova orqali savollarini tez va samarali hal qilishda yordam beradi.

Agricultural Bank of China mobil bankingda biometrik himoyani yaxshiladi

Iyul oyida bank yuz va barmoq izi tanib olishning ilg'or texnologiyalarini joriy etdi, bu esa mobil tranzaksiyalarning xavfsizligini oshirib, firibgarlik holatlarining sonini kamaytirdi.

